

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
Djumaniyazov Maqsud Allazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
“Yashil” iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Urdaabev Jarылкап Ермеқбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиша Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
“Universitet-ishlab chiqarish” integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor; Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution.....	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili.....	138
Ro'zmamatov Abbos Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Ekspost – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida.....	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны.....	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi.....	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане.....	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar.....	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayansh doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi.....	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari.....	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения.....	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari.....	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана.....	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish.....	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni.....	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики.....	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея.....	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba.....	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildiyevich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала.....	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



BANKLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MAKROPRUDENSIAL SIYOSATNING O'RNI

Nilufar Sharipova

PhD, Toshkent moliya instituti "Bank hisobi va audit" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bank tizimi barqarorligida muhim ahamiyatga ega. Banklarning moliyaviy barqarorligini baholashda reyting baholash tizimiga asoslangan usul, koeffitsiyent tahliliga asoslangan usul, statistik modellarga asoslangan usul hamda makroprudensial usullar mavjud. Maqolada banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'ri, uning instrumentlari to'g'risida so'z yuritilgan hamda tegishli xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: banklarning moliyaviy barqarorligi, makroprudensial siyosat, monetar siyosat, stress-testlar, kapital yetariligi, likvidlilik.

Abstract: Providing financial stability of banks is important for the stability of the banking system. When assessing the financial stability of banks, there is a method based on a rating evaluation system, a method based on coefficient analysis, a method based on statistical models, as well as macro prudential methods. The article examines the role of macro prudential policy in ensuring the financial stability of banks, its tools and the relevant conclusions are formed.

Key words: financial stability of banks, macro prudential policy, monetary policy, stress tests, capital adequacy, liquidity.

Аннотация: Обеспечение финансовой устойчивости банков имеет важное значение для стабильности банковской системы. При оценке финансовой устойчивости банков существует метод, основанный на рейтинговой системе оценки, метод, основанный на коэффициентном анализе, метод, основанный на статистических моделях, а также макропруденциальные методы. В статье рассматривается роль макропруденциальной политики в обеспечении финансовой устойчивости банков, ее инструменты и сформулированы соответствующие выводы.

Ключевые слова: финансовая устойчивость банков, макропруденциальная политика, денежно-кредитная политика, стресс-тесты, достаточность капитала, ликвидность.

KIRISH

Moliyaviy barqarorlik holatida banklar ko'zda tutilmagan shok holatlariga qarshi tura oladi va shuning barobarida, jamg'armalar va moliya resurslarini samaraliroq va ijtimoiy muhim faoliyat yo'nalishlariga samarali taqsimlash jarayonini jiddiy xavf ostiga qo'yishi mumkin bo'lgan ehtimolliklarni pasaytiradi.

Jahon amaliyotida markaziy banklar moliya tizimining barqarorligini ta'minlash va tizimli risklarni yumshatish maqsadida bir qator makroprudensial vositalardan foydalanadi. O'z navbatida, makroprudensial vositalariga kapitalning konservatsiya buferi, kontrtsiklik kapital buferi, mahalliy va global tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital bufer, kreditni garov qiymatiga nisbati (Loan-to-value, LTV) hamda kredit to'lovining daromadga nisbati (Payment-to-income, PTI) bo'yicha cheklolar va boshqalar kiradi. Bugungi kunda O'zbekistonda kreditni garov qiymatiga nisbati va kredit to'lovini daromadga nisbati kabi makroprudensial vositalar amaliyotda qo'llanib kelinmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Moliyaviy barqarorlik mavjud bo'lganida tizimli riskning o'sishi to'xtaydi. O'z navbatida, tizimli risk yuzaga kelganida zarur moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar sezilarli darajada yomonlashadi va bu iqtisodiy o'sish hamda aholining yashash tarziga o'z ta'sirini o'tkazadi (EB)¹.

¹ Financial stability and macroprudential policy [Electronic resource] / European Central Bank. – Mode of access: https://www.ecb.europa.eu/ecb/tasks/stability/html/index_en.html. – Date of access: 08. 10. 2018



Moliyaviy barqarorlik bu moliya tizimidagi shunday holatki, bunda moliya tizimi yaxshi va yomon ta'sirlar ostida uzluksiz faoliyat ko'rsata oladi va iqtisodiyotning istalgan ijobiy va salbiy shok holatlariga dosh bera oladi (FRT). Bunda moliyaviy barqarorlik biznesdagi yo'qotishlarni oldini olishni nazarda tutmaydi. Moliyaviy barqaror holatda tizim shunday yo'qotishlar bilan ham samarali ishlay oladi².

Moliyaviy barqarorlik bu moliyaviy nobarqarorlikning, shuningdek, umumiy iqtisodiy faollikka sezilarli zarar yetkazishi mumkin bo'lgan bozor "yo'qotishlari" yoki tashqi shoklarning mavjud bo'lmashligidir (XVF)³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banking moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirishda tizimli tahlil hamda modellashtirish usullaridan foydalaniladi. Ushbu usullar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini baholash imkonini beradi. Shuningdek, tijorat banklarining barqaror faoliyatini tahlil qilishda qiyoslash usulidan foydalangan holda ularga ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro aloqadorlik darajalari belgilanadi. Mazkur usullar tijorat banklari faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash istiqbollari belgilab beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda Markaziy bankning makroiqtisodiy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan monetar siyosat hamda alohida banklarning to'lovga layoqatsizligini oldini olish, shuningdek, kreditorlar va omonatchilar oldidagi majburiyatlarini vaqtida bajara olishini nazorat qilishga qaratilgan mikroprudensial nazorati o'rtasida mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan siyosat makroprudensial siyosat bo'lib hisoblanadi.

Makroprudensial siyosatning asosiy maqsadi:

- tizimli moliya riskini qisqartirish;
- ikki asosiy vazifasi moliya sektorning barqarorligini oshirish hamda moliya sikllarini yaxshilash.

Makroprudensial siyosatning asosiy maqsadlari sifatida xorijiy ekspertlar quyidagilarni belgilaydilar:

- Iqtisodiyotning haddan ortiq kreditlanishi va banklar leverajini chegaralash;
- Bank aktiv va passivlarining muddatlari bo'yicha mos kelmasligini, shuningdek, bozorda likvidlilik yetishmovchiligini chegaralash;
- Bir necha moliya tashkilotlarida asosiy operatsiyalar konsratsiyasini oldini olish (tizimli muhim banklar faoliyatida nobarqarorlashuv muammosi);
- Tizimli muhim banklar agressiv ekspansion siyosat yuritishini oldini olish.

Makroprudensial siyosat butun moliya tizimini himoya qilishga qaratilgani sababli uning imkoniyatlari mikroprudensial tartibga solish choralaridan ancha keng. Shuning uchun makroprudensial siyosat moliyaviy tizimlarni, moliya bozorlari, moliyaviy vositachilar (bank, sug'urta kompaniyalari, institutsional investorlar va b.), moliya infratuzilmasi, shuningdek, parabank tizimi (pul bozori fondlari, nobank ipoteka kredit tashkilotlari, xedj fondlari va b.)ni to'liq qamrab olishi zarur.

Makroprudensial siyosat samarali bo'lishi uchun uning tashkillashtirilishida institutsional mexanizmlarni to'g'ri yo'lga qo'yish lozim. Makroprudensial siyosat yo'lga qo'yilishining ikki xil sinfik modeli sifatida Buyuk Britaniya va Shvetsiya modelini qiyoslash mumkin.

Buyuk Britaniya modelida Angliya banki pul kredit siyosati va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha javobgarlikni to'liq o'z bo'yniga oladi. Regulyator tarkibida ham monetar siyosat qo'mitasi, ham moliyaviy siyosat qo'mitasi mavjud. Har qaysi qo'mita o'z maqsadlariga ega va instrumentlari bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga erishishda o'zi javobgar. Shu bilan birgalikda ikkala siyosat ham ochiq va shaffof olib boriladi, bankning bir necha xodimlari ikkala qo'mitada ham ish faoliyatini olib boradi. Bu esa qo'mitalarni bir-birining faoliyatidan ogoh qilib boradi.

Ikkinchi model Shvetsiyada yo'lga qo'yilgan. 2013-yilda Shvetsiya hukumati mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda turli hukumat organlarining vazifalari o'zgarganini e'lon qiladi. Moliyaviy nazorat bo'yicha

2 Fischer, S. An Assessment of Financial Stability in the United States [Electronic resource] / S. Fischer // Federal Reserve System. – Mode of access: <https://www.federalreserve.gov/newsevents/speech/fischer20170627a.htm>. – Date of access: 08. 10. 2018

3 Čihák, M. Setting Up Financial System Stability Function: Challenges & Opportunities [Electronic resource] / M. Čihák // International Monetary Fund. – Mode of access: http://siteresources.worldbank.org/FINANCIALSECTOR/Resources/E-Financial_Stability_Function-Fed-IMF-WB_Course-MCihak.pdf. – Date of access: 08. 10. 2018




Agentlikka (Finansinspektionen) moliyaviy barqarorlik va barcha makroprudensial nazorat instrumentlari bo'yicha, shuningdek, kapital kontrtsiklik buferi bo'yicha asosiy javobgarlik yuklatilgan. Shundan kelib chiqib, Shvetsiya Markaziy banki Riksbankda (Sveriges riksbank) inqirozlarning oldini olish uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha instrumentlar mavjud emas.

Yuqoridagi har ikki model ham tarixiy shakllangan. Shvetsiyaning moliyaviy nazorat bo'yicha Agentligi barcha mikroprudensial instrumentlarni nazorat qilib kelgan, shuning uchun ham makroprudensial boshqaruv huquqining ushbu agentlikka berilishi tabiiy bo'lgan. Chunki makroprudensial nazorat instrumentlari pul-kredit siyosatidan ko'ra mikroprudensial nazorat instrumentlariga yaqin bo'lib hisoblanadi. Shvetsiyaning Moliyaviy nazorat bo'yicha agentligi hukumat tarkibida bo'lganligi sababli moliyaviy barqarorlik va barcha moliyaviy islohotlar va moliya oqimlarining qayta taqsimlanishi bo'yicha boshqa oqibatlar bo'yicha aynan hukumat javobgarlikni o'z bo'yniga oladi.

Shuningdek, Shvetsiya hukumati tomonidan moliyaviy barqarorlik Kengashi tashkil qilingan bo'lib, uning raisi Moliya vaziri, bosh direktorlari esa Qarzlarni bo'yicha milliy byuro va Riksbank raislari bo'lib hisoblanadi. Ushbu Kengash o'ziga xos forum bo'lib, unda a'zolar moliyaviy barqarorlikka oid fikrlari bilan almashadilar.

Tarixiy va siyosiy iqtisodiy jihatlar har bir mamlakatda institutsional mexanizmlarning yo'lga qo'yilishida o'z ahamiyatiga ega. Masalan, Fransiyada ham moliyaviy barqarorlik bo'yicha Kengash faoliyat yuritadi, ammo ushbu Kengash Shvetsiyadagi kengashdan ko'ra makroprudensial siyosat bo'yicha ko'proq huquqlarga ega (1-rasm).



1-rasm: Fransiyada makroprudensial siyosatning tashkiliy tuzilishi

Yevropa Ittifoqida moliya tizimining makroprudensial nazorati 2010-yilda global inqiroz sababli tashkil qilingan Tizimli risklar bo'yicha Yevropa kengashi (ESRB) ga yuklatilgan. ESRB faoliyati moliyaviy barqarorlikning tizimli risklarini chegaralash, ichki bozorning uzluksiz ishlashi va shuning barobarida moliya sektori va iqtisodiy o'sishga barqaror hissasini qo'shib borishga qaratilgan. ESRB tizimli risklarni tezkor monitoring qilish maqsadida 2012-yildan risklar xaritasi (Risk Dashboard) ni yuritadi. Risk Dashboard o'z ichiga Yevropa Ittifoqi moliya tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qator sifat va miqdor ko'rsatkichlarini va tizimli risklarni o'z ichiga oladi. Bunda 70 ta ko'rsatkich belgilangan bo'lib, ular quyidagi manbalardan kelib chiqqan risklarni o'z ichiga oladi: moliyaviy aloqalar tezligi, makroiqtisodiy ta'sirlar, kredit faolligi, fondlashtirish va likvidlilik, moliya bozorlaridagi holat, moliya institutlarining rentabelligi va to'lovga layoqatliligi.

Makroprudensial siyosat instrumentlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: "yumshoq instrumentlar" (jamoatchilik bilan moliyaviy sektor barqarorligi bo'yicha aloqalar), oraliq (moliya bozori ishtirokchilariga tavsiya va ogohlantirishlar kiritish) hamda "qattiq" instrumentlar (makroprudensial siyosatning majburiy talablari) (2-rasm).



2-rasm: Makroprudensial siyosatning keng tarqalgan instrumentlari

Har bir instrument qo'llanilganida amalga oshiriladigan xarajatlar, ehtimoliy salbiy ta'sirlar hisobga olingan holda, tizimli riskning yuzaga kelishini oldini olishga qaysi instrumentni qo'llash samaraliroq bo'lishi hisoblab chiqiladi. Boshqa barcha hollarda an'anaviy mikroprudensial ta'sirlarga muvofiq keladigan eng oddiy instrument tanlanadi. Bu bankning administrativ xarajatlarini kamaytirib, regulyator xodimlarining faoliyatini soddalashtirishga xizmat qilishi lozim.

Moliya bozorida inqiroz holatini erta aniqlash tizimi o'z ichiga quyidagi to'rt asosiy elementlarni oladi:

- moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini (keyingi o'rinlarda MBK) monitoring qilib borish – Xalqaro valyuta fondi tomonidan ishlab chiqilgan depozit tashkilotlarning boshqa iqtisodiy sektorlar bilan o'zaro aloqasida joriy moliyaviy holati va barqarorligini tavsiflovchi sifat ko'rsatkichlarini aniqlab, tahlil qilib borish;
- tizimli muhim moliya tashkilotlarini stress-testini amalga oshirib borish, ya'ni ularning mavjud makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga yoki ehtimoliy salbiy ta'sirlarga sezuvchanligini baholash;
- erta ogohlantirish tizimlaridan foydalanish (early warning system) – statistik optimal yondashuv doirasida moliyaviy (bank, valyuta, qarz) inqirozi yuzaga kelishi ehtimolini baholashga imkon beruvchi maxsus iqtisodiy-matematik modellarni qo'llash. Ushbu usul maksimal aniqlikda oldindan bashorat qilolmasa ham, moliyaviy nobarqarorlik tendensiyalari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hollarda muhim moliyaviy risklarni ehtimoligini miqdoriy baholashga imkon beradi;
- moliya bozoring faoliyati shart-sharoitini tavsiflovchi "sintetik" ko'rsatkichlarini yaratish (turli tizimli risk indeklari, moliyaviy va biznes-tsikl bosqichlarining ko'rsatkichlari, risk xaritalari va diagrammalari va b.).

Xorijiy markaziy banklar faoliyatida MBK va panel ko'rsatkichlari (dashboard) deb nomlanuvchi boshqa ko'rsatkichlarni birlashtirib tahlil qilish amaliyoti keng qo'llanilishini kuzatish mumkin. Panel ko'rsatkichlari MBK tizimini hisobga olgan holda tizimli moliyaviy riskni o'zgarish darajasi va yo'nalishini tahlil qilishga qulaylik tug'diradi.

Qoida bo'yicha panel ko'rsatkichlar 50 tadan 100 tagacha bo'lgan risk kategoriyasiga qarab guruhlangan ko'rsatkichlarga bo'linadi: makroiqtisodiy muhit, kredit riski, likvidlilik riski, bozor riski, bank biznesi rentabelligi riski, sug'urta faoliyati rentabelligi riski, moliya sektori segmentlari aloqasi va shu kabi boshqa risk guruhlari. Panel ko'rsatkichlarining har biri bir necha chegara qiymatiga qarab, shu ko'rsatkich bo'yicha past, o'rta va yuqori risk guruhlarni belgilab beradi.



Tizimli riskni baholashning asosiy instrumentlaridan biri makrostsenar stress-testni amalga oshirish bo'lib hisoblanadi. Stress-testni amalga oshirayotgan subyektga qarab, uni ikki turga bo'lish mumkin: pastga tushuvchi (top-down) va tepaga chiquvchi (bottom-up) stress-testlar. Pastga tushuvchi (top-down) stress-test regulyator tomonidan o'zi ishlab chiqqan makrossenar bo'yicha mustaqil ravishda amalga oshiriladi va butun bank tizimini qamrab oladi. Tepaga chiquvchi (bottom-up) stress-test moliya tashkiloti tomonidan ichki ma'lumotlardan foydalanib amalga oshiriladi va o'zining moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi risk omillarini mustaqil baholashga imkon beradi. Tepaga chiquvchi (bottom-up) stress-test natijalari markaziy bankka taqdim etib boriladi. Makrossenar stress-testni amalga oshirish tizimli riskni baholashda qator afzalliklarga ega. Shuningdek, xalqaro amaliyotda makrostsenar stress-testni amalga oshirishda makroprudensial siyosat instrumentlaridan foydalanilishini kuzatish mumkin.

Masalan, Fransiya banki stress-testda to'rt loyihani amalga oshiradi: bazaviy loyiha, makroprudensial siyosat chora-tadbirlari bilan bazaviy loyiha, noqulay loyiha hamda makroprudensial siyosat chora-tadbirlari bilan noqulay loyiha. Loyihalar ularni makromoliyaviy VAR shaklida amalga oshirilgan o'zaro aloqadorlik modellari bilan bog'lash mumkin bo'ladigan qilib tanlanadi. Masalan, Fransiya banki tomonidan foydalaniladigan VAR real YaIM va aksiyalarning bozor narxi o'rtasidagi aloqani ifodalaydi:

$$\begin{aligned}d_GDPT &= 0,26 + 0,89d_GDPT-1 + 0,01 d_EQY t-1, \\d_EQY t &= 0,88 + 0,20d_GDPT-1 + 0,83 d_EQY t-1,\end{aligned}$$

Ushbu formuladan ko'rinadiki, YaIM o'sishi fond bozori kotirovkalaridan orqada qolmoqda. Chunki bozor ishtirokchilari aktivlar narxi bo'yicha kutilmalarni o'tgan YaIM asosida hisoblaydilar. Shu bilan birgalikda, agar ishtirokchilar kelajak makroiqtisodiy o'sishni baholashda adashmasalar, moliyaviy aktivlar narxi dinamikasi YaIM o'sishidan orqada qoladi. Ushbu model fond bozorida shokka javoban iqtisodiy o'sish tempi o'zgarishi loyhasini tuzishga imkon beradi.

Bunday modellar iqtisodiyotda shok holatlarining yuzaga kelish kanallarini aks ettiradi va makroiqtisodiy hamda moliyaviy o'zgaruvchi ko'rsatkichlarning kuchli o'zaro aloqasi mavjudligini ko'rsatadi. Shu asnoda inqiroz holatlarining erta ogohlantirish ko'rsatkichlari bilan makroiqtisodiy muhitni bog'lash imkoniyati yuzaga keladi. VAR-modeli fond bozorida, ko'chmas mulk bozorida narxlar, kreditlash hajmi, foiz stavkalari, qarz yuki kabi o'zgaruvchilarni o'z ichiga olishi mumkin. Shuning uchun alohida o'zgaruvchilarni baholashda, masalan, bank tizimining kapital yetariligi o'zgarishini moliya sektoriga va real iqtisodiyotga kontrtsiklik bufer kapitalining kiritilishi bilan bog'liqlikda o'rganish mumkin.

Erta ogohlantirish tizimlari ko'p hollarda binar tanlovli ekonometrik model shaklida quriladi. Bog'liq o'zgaruvchi sifatida faqat ikki qiymatni qabul qilishi mumkin bo'lgan binar o'zgaruvchi yit olinadi: 1 (agar i-davlatda t davrdan t+H davrgacha moliyaviy inqiroz sodir bo'lgan bo'lsa), yoki 0 (teskari holatda). O'zgaruvchi xit ning qiymatiga chegara qo'yilmaydi, bunday omillar sifatida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hamda moliya bozori ishtirokchilarining moliyaviy holati indikatorlari olinishi mumkin. Shundan kelib chiqib, pit – moliyaviy inqiroz ehtimolligida yit = 1 bo'ladi.

Ushbu holatda bank tizimi inqirozi modelga kiritilgan regressorlar x^1_{it} , x^2_{it} , x^3_{it} , ..., x^n_{it} ga bog'liq va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$pit = P(Y_{it}=1) = F(\sum_{k=1}^n \beta_k x_{kit} + \beta_0),$$

bunda $F()$ – normal taqsimot funksiyasi, $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$ – modeldagi noma'lum koeffitsiyentlar. Shunga muvofiq ravishda, inqiroz bo'lmasligi ehtimolligi $1 - pit$ ga teng.

Binar o'zgaruvchi yit faqat ikki chegara qiymatiga ega, modelda bu ehtimollik yo nolga yoki birga yaqin bo'lishi mumkin. Shuning uchun agar $pit > \theta$ bo'lsa (θ – oldindan belgilangan chegara qiymati), u holda moliyaviy tizim inqiroz holatini boshdan kechirayotganini ko'rsatadi, aksincha holatda ($pit \leq \theta$) – tizim nisbatan barqaror holatda ekanini anglatadi. Ushbu prinsipdan erta ogohlantirish tizimlari bilan baholashda foydalaniladi: 1 tur xatolik (T1) "inqiroz ehtimoli" va 2 tur xatolik (T2) "inqiroz hali yo'q paytida u haqida signal". 1 va 2 tur xatoliklarni tahlil qilib, ularni minimallashtirish maqsadida keyingi integratsiyada boshqa θ chegaraviy qiymatini tanlash mumkin. Har ikkala xatolikni bir paytda minimallashtirishning iloji yo'q, shuning uchun qaror qabul qiluvchi tomon uchun maqsadli tenglama tuziladi:

$$L(\mu; \theta; W) = \mu T1(\theta; W) + (1 - \mu) T2(\theta; W),$$

bunda $W = \sum_{k=1}^n \beta_k x_{kit} + \beta_0$.

μ parametri regulyator moliyaviy inqirozni qanchalik cheklab o'tishga harakat qilishiga qarab ko'radigan chora-tadbirda qarab, o'zgaradi.



Misol uchun, markaziy bank avval boshda 29 ta ko'rsatkichni erta ogohlantirish tizimida o'zgaruvchi sifatida oladigan bo'lsa, avtomatik ravishda har bir model uchun faqat to'rt regressor ishtirokida ko'plab sonli tenglamalar shakllantiriladi. Ushbu modellardan 95%lik ahamiyatga ega koeffitsiyentlar tanlanib, inqirozni prognoz qilishda foydalaniladigan eng ishonchli modellar tanlab olinadi.

Markaziy banklar qo'llanilayotgan makroprudensial siyosatning iqtisodiyotga ta'sirini baholash maqsadida tarkibli makroiqtisodiy modellardan foydalanadi. Ushbu yondoshuv DSGE-modellar asosida amalga oshiriladi, masalan,

$$Kt/Bt \quad vt$$

$$vt = v + \varphi (\text{Credit/GDPt} + \text{Credit/GDP}) + \epsilon t$$

bunda:


Kt – bank tizimi kapitali;

Bt – jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi;

vt – kapitalga talab;

v va φ (*) – muvofiq ravishda netsiklik va siklik komponentlari;

ϵt – tarkibiy shok.



3-rasm: Monetar va makroprudensial siyosatning o'zaro bog'liqligi.

Ma'lumki, Xalqaro hisob-kitoblar banki tizimida kapital va likvidlilik bo'yicha yangi Bazel III standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu standartlarga ko'ra, markaziy banklarga inflyatsiya bo'yicha egiluvchan siyosat bilan bir qatorda moliyaviy barqarorlik bo'yicha qattiq siyosat yuritish tavsiya qilinadi. Ushbu nuqtayi nazar moliyaviy inqirozlar davrida kuzatiladigan yuqori makroiqtisodiy xarajatlar bilan bog'liq. Foiz stavkalarini tushirish inflyatsiya va ishsizlik darajasini bevosita tushishiga xizmat qilsa-da, moliyaviy inqiroz yuzaga kelishi ehtimoliga ham ta'sir o'tkazadi. 3-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkin, monetar siyosat inflyatsiyaga bevosita ta'sir o'tkazsa, makroprudensial siyosat moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'z o'rnida, monetar siyosat foiz stavkalari, bandlik, foyda, kredit va aktivlar bo'yicha yo'qotishlarga ta'sir qilsa, moliyaviy barqarorlik obyekti – moliyaviy institutlar balansi va moliyaviy leveraj darajasi bo'lib hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, makroprudensial nazorat va monetar siyosat o'rtasida tabiiy bog'liqlik mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirish o'rinlidir:

- Markaziy bank tomonidan banklarning kapitaliga talabning oshirilishi iqtisodiyotda kredit taklifi bo'yicha salbiy shok sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Bu holatda banklar o'z kapitalini oshirish maqsadida daromadini oshirish uchun jismoniy va yuridik shaxslarga beriladigan kreditlarning foiz stavkalarini oshirishlari mumkin. Shuning bilan birga, banklarning defolt ehtimoli kamayib, natijada defolt bilan bog'liq xarajatlari ham kamayadi. Bu holatda banklarning barqarorligi ortishi, iqtisodiyotni kreditlash hajmini keyinchalik yana oshirilishiga olib keladi;
- Samarali makroprudensial nazorat moliyaviy vositachilik sohasini rivojlantirishga, kredit resurslari oqimini yanada barqaror xo'jalik subyektlariga yo'naltirish orqali qayta taqsimlash, bu orqali iqtisodiy faollikni oshirish hamda bandlik va YaIM o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Е. А. Криволевич, "Макропруденциальный анализ и оценка устойчивости банковского сектора"/Финансовая аналитика: проблемы и решение, 15 (39) – 2010, стр. 43–46.
2. Подходы к организации стресс-тестирования в кредитных организациях (на основе обзора международной финансовой практики) / Банк России, 2003.
3. URL: http://www.cbr.ru/analytics/bank_system/print.asp?file=stress.htm.
4. Principles for sound stress testing practices and supervision. Basel committee on banking supervision. mau, 2009.
5. Basel Committee on Banking Supervision, 2010, "Countercyclical Capital Buffer Proposal, Consultative Document," Bank for International Settlements, Basel.
6. Bruno, Valentina, and Hyun Song Shin, 2012, "Assessing Macroprudential Policies: Case of Korea," presented at the symposium of the Scandinavian Journal of Economics on Capital Flows.
7. Егоркин Е. А. "Совершенствование методов оценки финансовой устойчивости коммерческого банка" – дисс. на соискание уч. степ. пол. канд. наук, Махачкала–2015.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

